

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:48 (67213)  
2018-yil 26-noyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN — 2010-6092

Xalqimizda «Ustoz otangday ulug'» degan purma'no naql bor. Darhaqiqat, ustoz shogirdiga ilm bersa, unga cheksiz mehr-e'tibor ko'rsatsa, buning ortidan, albatta, yaxshilik ko'radi.

## «TONG YULDUZI»DAN TASHAKKURNOMA OLDIM»



Adabiyot gulshaniga bolaligidan qadam qo'ygan Iqbolxonga 5-sinfda o'qib yurgan davridan boshlab ustozlik qilaman. U o'shandayoq o'zining odobi, aql-zakovati bilan boshqa sinfdoshlaridan ajralib turardi. Vaqt o'tishi bilan qizaloqdagi iqtidor, zukkolik o'z mevasini bera boshladi. Shogirdimning 5–8-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning maktab va tuman bosqichida faxrli 1-o'rinni egallashi ustoz sifatida meni behad

mamnun qilgan.

Kuni kecha Iqbolxon Muhammedovanning maqolasi «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Boylikni bolalikdan asrang» tanlovida 1-o'ringa munosib ko'rilgani munosabati bilan maktabimizda nashr ijodkorlari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirda tashkilotchilar tomonidan maqola muallifining ustoz sifatida meni tashakkurnoma hamda badiiy kitob bilan taqdirlashdi. Men bu sovg'alarni ola turib, o'qituvchi kas-

bini egallaganimdan, o'quvchilarim shunday yuksak natijalarga erishganidan bag'oyat xursand bo'ldim. Mamnunligimni ifodalash uchun menga so'z navbati berilganda, «Shogird sharafiga ustozga sovg'a berildi. Ayniqsa, sovg'alarning eng qimmatlisi kitobdir. Mening shaxsiy kutubxonamda mingdan ortiq badiiy asarlar bo'lsa-da, shogirdim orqasidan menga berilgan bu kitobni faxr bilan eng yuqori o'ringa, kitob javonimning eng ko'zga ko'rinarli

joyiga qo'yaman», deb aytdim.

Tadbirda «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari so'zga chiqib, aziz yoshlarga mustahkam bilim olish, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun tinmay izlanish, ko'p harakat qilish zarurligini ta'kidladilar.

**Dilfuza ALIMJANOVA,**  
poytaxtimizning Yakkasaroy  
tumanidagi 73-umumta'lim mak-  
tabining ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi

Tel:  
(71) 244-63-08;  
www.tongyulduzi.uz;  
e-mail: info@tongyulduzi.uz;  
telegram: t.me/tongyulduz

**Sevimli gazetangizga  
2019-yil uchun obuna  
bo'lishga shoshiling!**

Nashr  
ko'rsatkichi  
**198**



# INSON HUQUQLARI – OLIIY QADRIYAT



Samarqanddagi forumlar saroyida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlab Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi bo'lib o'tdi. Dastlab forum ishtirokchilariga davlatimiz rahbarining tabrigi va murojaati o'qib eshittirildi. Jumladan, unda shunday deyiladi: «70 yil avval qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi butun dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish borasida yangi imkoniyatlar ochdi».

Haqiqatan ham mazkur xalqaro huquqiy hujjat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda Fransiyada, Parijdagi Shayo saroyida qabul qilingan. Ushbu hujjatning ishlab chiqilishiga Ikkinchi jahon urushi davomida jahon xalqlari boshidan kechirgan fojialar turtki bo'lgan. Mazkur hujjatda alohida madaniyat, millat va mintaqalar bilan cheklanmagan universal qadriyatlar mustahkamlanib, har bir inson irqi, dini, tili, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy va ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy va boshqa holatidan qat'iy nazar, insoniyatga mansubligi nuqtayi nazaridan ega bo'lishi lozim bo'lgan huquqlar belgilab qo'yilgan. Deklaratsiya 30 maddadan iborat.

Shuningdek, «Oila instituti va jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizini mustahkamlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda, barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda», deyiladi murojaatnomada.

Ushbu hujjatning qabul qilinishi xalqaro munosabatlar rivojida muhim tarixiy bosqich bo'ldi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi – O'zbekiston Mustaqillikka erishganidan so'ng tan olingan dastlabki xalqaro huquqiy hujjatlardan biri ekanini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu Deklaratsiyaning barcha asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan.

– Bu yil Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 70 yilligi butun dunyoda keng nishonlanmoqda, – deydi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori,

akademik, yuridik fanlari doktori Akmal Saidov. – Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash muammosi yurtimizda nafaqat davlatning, balki butun jamiyatning diqqat markazidir. Mamlakatimiz rahbarining «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi»da belgilangan keng qamrovli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, shubhasiz, davlat, jamiyat va fuqarolarning mazkur Deklaratsiya tamoyillari hamda qadriyatlariga bo'lgan e'tibor-u ehtiromini yanada oshiradi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumida Samarqand Deklaratsiyasi qabul qilindi.

**Jamsran Byambadorj, Mo'g'uliston inson huquqlari bo'yicha milliy komissiya raisi, huquqshunoslik fanlari doktori, professor:**

– Inson huquqlari bo'yicha umumjahon Deklaratsiyasining 70 yillik tantanalari munosabati bilan Mo'g'ulistonda, shuningdek, dunyo miqyosida inson huquqlariga oid holatlarga yangicha qarash va jarayon borasida xulosalar chiqarish maqsadga muvofiq bo'lardi. Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida, jumladan, inson huquqlarini himoya qilish borasida ham yangi huquqiy tizim yo'lga qo'yildi. Mo'g'uliston BMTning 30 dan ortiq xalqaro shartnomalariga qo'shilib, ratifikatsiya qilgan hamda Mehnat xalqaro tashkilotining inson huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan 20 ta konvensiyasiga qo'shilgan.

Mo'g'ulistonning amaldagi Konstitutsiyasi 1992-yilning 13-yanvarida qabul qilingan. Uning muqaddimasida quyidagilar alohida ta'kidlangan:

«Biz Mo'g'uliston xalqi mamlakatimizning mustaqilligi va suverenitetini qat'iy mustahkamlash, inson huquqlari va erkinligini hurmat qilish, adolatparvarlik

va milliy hamjihatlik, o'z davlatchiligimiz an'analari va merosini ko'z qorachig'idek asrash, tarixi va madaniyati, insoniy tamadduni yutuqlariga ehtirom ko'rsatish, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan fuqarolik, demokratik jamiyat barpo etish maqsadida mazkur Konstitutsiyani qabul qilamiz».

Mo'g'ulistonlik huquqshunosning fikrlari bizni ham munozaraga chorladi. «Farzand tarbiyasida eng muhim omil nima?» degan savol bilan murojaat qildik.

– Tarbiya bolalikdan boshlanadi. Bu masalaga o'z vaqtida e'tibor qaratish juda muhim, – dedi Jamsran Byambadorj. – Bejizga, avvalo, inson bo'li, deyilmaydi-da. Tarbiya oiladan, ostonadan boshlanadi, maktabda,



ta'limning keyingi bosqichlarida mukammallashib boraveradi. Bu borada, albatta, ustoz e'tibori, uning fidoyiligi asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilarga internetdan oqilona foydalanishni o'rgatib borish zarur. Tasavvur qiling, o'quvchi dars vaqtida sinfdoshiga SMS yozadi, tabiiyki, nafaqat o'zi, balki o'rtog'i ham darsdan chalg'iydi. Yoki jangarilik, vahshiylik ko'rinishlari aks etgan videolavha qo'lma-qo'l bo'lib ketadi. Buning oldini olish uchun nima qilmoq kerak? Ijtimoiy tarmoqlarni cheklab bo'lmaydi, albatta. Demak, yana tarbiya, tarbiya, tarbiya! Afsuski, keyingi paytlarda biz ko'proq ta'limga e'tibor qarataymiz, tarbiya esa ikkinchi o'ringa tushib qolmoqda. Agar inson bolalikdan oqil bo'lsa, o'zi va atrofdagilarning huquq va erkinliklariga hurmat bilan qaraydi, vaqtini behuda ishlarga sarflamaydi.

## «INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI»DAN

**1-modda.** Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak.

**3-modda.** Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir.

**4-modda.** Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas: qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi.

**7-modda.** Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday g'ij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

**26-modda.** 2. Ta'lim inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosi erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va do'stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak.

## 29-modda.

1. Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin.

2. Har bir inson o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umumfarovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak.

3. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga hech zid bo'lmazligi kerak.

## SHOIR XOTIRASI E'ZOZDA

**Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi,  
Yurakka ko'milar asl shoirlar.**

Kuni kecha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi «Onajonim she'riyat» to'garagining navbatdagi mashg'ulotida shoir A'zam O'ktam (Xudoyberdiyev)ning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Kechaqa ijodkor-

qildi. Shundan so'ng, yosh shoir Husan Maqsud so'z olib, A'zam O'ktam ijodi haqida taqdimot o'tkazdi. Shoirning «Azon», «Taftish», «Garchi», «Sahar vaqti yurak yig'lar» she'rlaridagi obrazlar talqini haqida gapirdi.

Hulkarxon Hamroyeva turmush o'rtog'i haqidagi xotiralarni yodga oldi. Farzandlari otasining nafaqat ijodkor, balki insofli, diyonatli, jonkuyar inson bo'lganligini aytib, u haqidagi xotiralarini so'zlab berishdi.

Kecha so'nggida yosh ijodkor-o'quvchilar – Niyatillo Meliqulov, Sirojiddin Po'latov, Husan Maqsudlar shoir she'rlaridan namunalari o'qidilar.

Bunday uchrashuvlar biz kabi yosh ijodkorlarga katta ijodiy tajriba maktabi bo'lishi shubhasiz.

**Mashhuraxon  
XO'JAAHMADXONOVA,  
Namangan viloyati,  
To'raqo'rg'on tumanidagi  
Is'hoqxon Ibrat maktabining  
11-sinf o'quvchisi**



ning umr yo'ldoshi Hulkarxon Hamroyeva, o'g'li Temur, qizi To'maris taklif qilindi.

Dastlab, to'garak rahbari Rustam Mirvohidov shoirning ijod yo'li, asarlari haqida ma'ruza

**So'zing kumush bo'lsa,  
Ishing oltin bo'lsin.**

**Tajribali ustoz Obidjon Xudoyqulov adabiyot darsini maroq bilan o'tadi. Mashg'ulotda ishtirok etgan o'quvchilarni ustozning har bir so'zi go'yo o'z sehriga tortganday bo'ladi. Muallim o'quvchilarga yana bir baytni ifodalari o'qiydi: «Ko'ngil maxzanining qulfi dil, Ul maxzanning kalitin so'z bil».**

## Oydinoyning oydin yo'li

Oydinoy o'qituvchining topishmoq tarzida bermoqchi bo'lgan topshirig'idan bexabar ularga savol bilan murojaat qiladi: «Ustoz, «maxzan» so'zining ma'nosi nima?» O'qituvchi o'quvchilarga yuzlanib, bu so'zning ma'nosi nima ekanligini so'raydi. Kimdir «sandiq» deydi, kimdir «boylik», yana kimdir esa «orzu». To'g'ri javob bo'lmagach, ustoz ushbu so'z «xazina» degan ma'noni anglatishini aytdi. Oydinoy uni lug'at daftariga qayd etib qo'ydi. Shu-shu u mumtoz asarlardagi matnlarda tushunish qiyin bo'lgan so'zlarni ustozdan so'rab, o'zi uchun yozib qo'yadigan bo'ldi.

Bir kuni Oydinoy muallimdan Navoiy asarlarining izohli lug'atini so'raydi. O'quvchisidagi adabiyotga bo'lgan qiziqishni ko'rgan Obidjon aka Xudoyqulov unga Marg'ilon shahridagi Erkin Vohidov nomidagi o'zbek tili va adabiyoti fanini chuqur o'qitishga hamda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatida faoliyat olib boradigan ustoz Tolibjon Ro'ziyevning oldiga borishni maslahat berib, ulardan g'azallar tahlilini yanada chuqurroq o'rganishi mumkinligini aytdi.

Oydinoyning onasi Dilorom opa Tilaboyeva uni Tolibjon akaning saboqlariga olib borishga alohida vaqt ajratdi. Bu orada u yodlagan g'azallar soni 60 dan oshdi. Iqtidorli qizning intilishlari besamar ketmadi. Kuni kecha «Na-

voiy vorislari» ko'rik-tanlovinin Farg'ona viloyati bosqichida Rishton tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



Oydinoy Jo'rayeva g'oliblikni qo'lga kiritib, respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

– Tanlovda g'olib bo'lganim uchun barcha ustozlarimdan minnatdorman, – deydi iqtidorli qiz. – Buyuk ma'rifatparvar, mutafakkir shoir Alisher Navoiy bobomizning boy ma'naviy merosini o'rganish har birimizning burchimizdir. Ular yozgan g'azal va ruboiylarni ingliz tilida ifodalari aytganimda, zalda gulduros qarsaklar yangradi. Kelgusida yetuk tarjimon bo'lib, mumtoz asarlarimizni xorijiy tillarga tarjima qilish niyatim bor.

Navoiy bobomizning «Yoshligingda yig'ilimning maxzanin», degan dono o'g'itiga amal qilayotgan Oydinoy kabi yoshlarimiz safi kelajakda yanada kengayishiga ishonamiz.

**Nodira NAZAROVA**

## YAXSHILIKKA YETAKLOVCHI ERTAKLAR

**Maktabimizning 2-sinf o'quvchilari ishtirokida «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» nomli tadbir bo'lib o'tdi.**



Kechada bolajonlar ustozlari ko'magida «Ur, to'qmoq» ertagi asosida sahna ko'rinishi namoyish etdilar. Ular o'z ijrolari orqali oliyanoblik, mehribonlik, rostgo'ylik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi sof insoniy fazilatlarni ulug'ladilar. Tadbir so'nggida o'quvchilar she'r va buyuk bobolarimizning kitob haqidagi hikmatlaridan namunalari o'qib, barchaga quvonch ulashdilar. Shuningdek, maktabimizda «Kitobxon

maktab» deb nomlangan kitob yarmarkasi o'tkazildi. Tadbirda qatnashgan ota-onalar farzandlariga o'zlari tanlagan va yoqtirgan kitoblarni sovg'a qildi.

**Saida JUMANIYOZOVA,  
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi  
1-umumta'lim maktabining boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi**

## USTOZNING KUN TARTIBI

**Aziz tengdoshim! Ustozlaringizning kundalik ishlarini hech kuzatganmisiz? Dars soatlari, to'garak mashg'ulotlari, tashkillashtiriladigan tadbir-u bayramlar ortida ularning qanchadan qancha mashaqqatli mehnati borligini bilasizmi?**

Mening mehribon o'qituvchilarni sira tinim bilmaydi.

Maktabimizning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnoz opa Mamajonova hamisha biz o'quvchilarning bo'sh vaqtimiz mazmunli va foydali o'tishini ta'minlaydi. Ona tili va adabiyot muallimalarimiz – Zarifa Toshova, Dilorom Jalilova esa faol va jonkuyar ustozlardan hisoblanadi. Menga, ayniqsa, ular tashkillashtirgan «Zulfiyaxonim» to'garagi juda yoqadi. Mashg'ulotlarda biz she'riy mashq va hikoyalarni tengdoshlarimizga o'qib beramiz. Bundan tashqari, odob-axloq qoidalari haqida ham fikr almashamiz. Ustozlarimizning mehri-yu e'tiboridan ilhomlanib, har shanba turli ijodiy bellashuvlar o'tkazamiz. G'oliblarni esa ertalabki saffalarida maktabimiz rahbari Mohidil Begmatova taqdirlaydi. Men maktabimizdagi Sevinch va Noila Yoqubova kabi rassom opalarimga havas qilaman. Ular yosh qalamkashlar uchun to'garak ham tashkil etdi. Bir so'z bilan aytganda, bizning fayzli va intizomli o'quv dargohimizda iqtidorli o'quvchilar juda ko'p.

**Zarina JO'RAYEVA,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
181-umumta'lim maktabining 8-«B»  
sinf o'quvchisi**

**Kishining qobiliyati uni amaliyotga  
tatbiq etgandagina bilinadi.**

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror toptirish, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ular qalbida buyuk allomalarimizning ilmiy merosiga muhabbat, hurmat tuyg'ularini kuchaytirish maqsadida «Allomalar haftaligi» tashkil etilmoqda.

## BUYUK SIYMO



Kuni kecha poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 248-umumta'lim maktabidagi barcha sinflarda «Mirzo Ulug'bek buyuk siymo» mavzusida ma'naviyat soatlari tashkil etildi. 9-«G» sinf o'quvchilari tomonidan tashkil etilgan tadbir «Mirzo Ulug'bek nafasi tirik» deb nomlandi. Ustoz Aziza Do'stqobilova rahbarligida o'tkazilgan mazkur kechada buyuk allomaning ijodiy asosida sahna ko'rinishi namoyish etildi va qatnashchilarda katta taassurot qoldirdi. Mohira Sultonova, Madina Mirzayeva, Dilnoza Normatova, Izzatilla Ahmatillayev kabi sinf faollari Xurshid Davron, Muhammad Yusuf singari el suygan shoirlarning Mirzo Ulug'bekka atab yozgan she'rlaridan ifodali o'qidilar.

Shuningdek, tadbirida Mirzo Ulug'bek tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Tojinisa Latipova so'zga chiqib, faol o'quvchilarni munosib taqdirladi.

## INSHOLAR OTA-ONALAR MUHOKAMASIDA

**Aziz o'quvchilar! Siz yozgan insholarni ota-onangiz, aka-opalaringiz o'qishadimi? Bu savolimizga poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 242-umumta'lim maktabi o'quvchilari «Albatta, o'qishadi», deb baralla javob beradi. Buning boisi, maktabda «Oila – mahalla – ta'lim muassasasi» jamoatchilik Kengashi yig'ilishlari samarali tashkil qilinayotganligidadir.**

Ta'lim muassasasida 5-sinf o'quvchilari o'rtasida «Vatan oilamdan boshlanadi», 6-sinflar ishtirokida «Munosib farzand», 7-sinf – «Yagonadir Vatanim manim!», 8-sinf – «Konstitutsiya – mening hayotimda», 9-sinf – «Men orzu qilgan hayot», 10-sinf – «O'zbekiston taraqqiyotida mening hissam», 11-sinf o'quvchilari o'rtasida «Mening tasavvurimdagi O'zbekiston – 2030-yilda» mavzusida insholar tanlovi bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar faol ishtirok etdi. Quvonarlisi, tanlovda o'quvchi yozgan inshoni o'z uyida ota-onalariga o'qib berishi, ularning fikrlari bilan o'rtoqlashishi shart sifatida belgilandi.

– Men «O'zbekiston taraqqiyotida mening hissam» hamda «Mening tasavvurimdagi O'zbekiston – 2030-yilda» mavzularida insho yozdim. Ijodiy ishimdagi bir-biridan qiziqarli fikrlarimni ota-onam o'qib, rosa xursand bo'ldi, – deydi 10-«E» sinf o'quvchisi Nafosat Ergasheva.

Nafosat singari ko'plab o'quvchilar o'z insholari bilan mehribon ota-onalarini kayfiyatlarini ko'targani rost. O'z

navbatida, ota-onalarning ham farzandlariga mehri ortgani, shubhasiz.

Shuningdek, maktabda o'quvchilarning jismonan sog'lom bo'lishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Yaqinda «Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz» shiori ostida sport musobaqalari bo'lib o'tdi. «Quvnoq startlar» sport musobaqasining 5-sinflar o'rtasidagi bahslarida 5-«J» sinf 1-o'rinni egalladi. 5-«D» sinf 2-, 5-«V» sinf jamoasi esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi. 6-sinf o'quvchilari o'rtasidagi bellashuvlarda g'oliblik 6-«V» sinfga nasib etdi. 6-«G» sinf va 6-«J» sinf jamoasi keyingi o'rinni egallashdi.

Yuqori sinflarlar o'rtasida bo'lib o'tgan shaxmat musobaqasida 7-«V» sinf o'quvchisi A. Saidniyozovga teng keladigan raqib topilmadi. Qizlar o'rtasida esa M. Abidova g'oliblikni qo'lga kiritdi.

9-sinf o'g'il bolalari o'rtasida o'tkazilgan stol tennisi musobaqasida 9-«A» sinf o'quvchisi Sh. Pardayev 1-o'rinni egallagan bo'lsa, qizlar o'rtasida 9-«D» sinf o'quvchisi Z. Shokirova tengsiz deb topildi.

**O'z muxbirimiz**



## YOSH AKTYORLAR MAKTABI

**Aziz bolajonlar! Oynayi jahon orqali turli bolalar ko'rsatuvlarini tomosha qilganingizda, dastur boshlovchisi-yu yosh aktyor do'stlaringizga havas qilishingiz tayin. Qiziq, ular san'at olamiga qanday kirib keldi ekan-a? Axir hali oliygohda tahsil olmagan bo'lsa? Gap shundaki, ular turli san'at maktablarida mahorat darslaridan saboq olishadi.**

Bugun sizlarga O'zbekiston xalq artisti Erkin Komilov rahbarligidagi O'zbek Milliy akademik drama teatri qoshida tashkil etilgan aktyorlik mahorati darslari haqida hikoya qilamiz. Ustoz san'atkor bu borada «Vays Media» san'at maktabi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Zero, mazkur maskan bugunga qadar aktyorlik mahorati, vokal, suxandonlik va notiqlik san'ati yo'nalishlarida ko'plab iqtidorli o'g'il-qizlarni kashf etgan. Masalan, «Shumtaka» ko'rsatuv boshlovchisi Anvar Nazarov, «Chaqachum»ni olib boruvchi Behruz, «Arg'imchoq» teledasturidagi so'zga chechan Dilshoda Rustamova va «Indigo» ko'rsatuvida iqtidorli tengdoshlari haqida ma'lumot berib boradigan Shohruh Saydullayevni yaxshi tanisiz.

Mahorat darslarini tashkil etishdan asosiy maqsad, akademik yoshlarni

qo'llab-quvvatlash, ustoz-shogird an'analarni mustahkamlashdan iborat. Bo'lajak aktyor do'stlaringiz

elimiz suygan san'atkorlar – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Munavvara Abdullayeva,



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shuhrat Qayumov, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchilari – Zamira Ahmedova, Ernazar Yarbekov, Bahodir Mag'diyevlardan ta'lim olmoqda. Yosh aktyor tengdoshlaringiz ravon so'zlash va nutqni shakllantirish, mohir san'atkor bo'lib yetishish uchun maktabdagi darslarni puxta o'zlashtirishlari, ko'proq kitob va gazeta-jurnal o'qish lozimligini ta'kidlaydi. Eng quvonarlisi, ular biz bilan do'stlashish istagini bildirdi. Demak, hali bu iqtidorli o'quvchilar bilan yana yaqindan tanishib, ularning mahorat darslarini sizga ham yetkazamiz. Zero, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Sizning orangizda ham san'atga qiziquvchan, maktab sahnasida turli rollarni ijro etuvchi yosh iqtidor egalari ko'plab topiladi.

**Sayyora QODIROVA**

**sinf o'quvchisi Habiba-xon Boboqulova «Ibn Sino izdoshlari» mavzusida insho yozishni boshlab yubordi. U ulug' ajdodlarimizga hurmat va ehtirom bajo keltirish, ularga munosib avlod bo'lib yetishish har bir o'quvchining orzusi ekanligi haqida to'liqlanib yozdi va ijodiy ishini o'qituvchisiga ko'rsatdi.**

– Barakalla, Habiba, – olqishladi ustoz.  
– Bolalar, yaqinda maktabimizda «Ibn Sino

# MUNOSIB VORISLAR

mavzusida o'tkazilgan insholar tanlovida qatnashgan 11-«B» sinf o'quvchilari o'z ijodiy ishlarida ona shahriga bo'lgan mehr-muhabbatlarini izhor etishdi. Tadbir doirasida ular turli go'shalarga sayohat uyushtirishdi.

– Bilim dargohimizda bilimdon o'quvchilar juda ko'p, – deydi maktab rahbari Nozima opa Tog'ayeva. – Jumladan, fan olimpiadasining viloyat bosqichida 11-«V» sinf o'quvchilari Yoqutxon Davronova ingliz tilidan 1-, Sabina G'iyosova 3-, Sug'diyona Husenova



«Kuchlarni birlashtirib, OITSni to'xtatamiz» shiori ostida o'tkazilgan ko'rik-tanlovdan lavhalar...

biologiya fanidan 1-o'rinni egalladi, 10-«A» sinf o'quvchisi Umid Ulug'ovning iqtisod fanidan olgan bilimi 3-o'ringa munosib topildi. Maktabimizda har kuni biror qiziqarli tadbir o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Shuningdek, dars mashg'ulotlaridan so'ng, o'quvchilar maktab kutubxonasida yangi badiiy kitoblarni tanishib, bir-bilari bilan fikr almashadilar. Bir so'z bilan aytganda, ushbu bilim maskanida buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari tahsil olmoqda. Buni maktab o'quvchilari hayoti aks etgan suratlardan ham bilish mumkin.

Ozoda TURSUNBOYEVA



Mashg'ulotlardan so'ng maktab kutubxonasi o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi.

izdoshlari» mavzusida insholar tanlovi e'lon qilindi. Mana, Habiba birinchilardan bo'lib, ijodiy ishini yozib topshirdi. Siz ham tanlovda ishtirok etib, g'olib bo'ling...

Navoiy shahridagi 16-umumta'lim maktabida har bir yangi kun ana shunday o'zgacha shukuhda o'tadi. Ayniqsa, bolajonlar ona shahrining 60 yilligini munosib nishonlashga uyushqoqlik bilan tayyorlandilar. «60 yoshing muborak, go'zal shahrim!»



6-«G» va 6-«E» sinf o'quvchilari ingliz tili fanida mevalarni qanday nomlanishni bilib oldi.

## Lesson 48

## ZERO ARTICLE

This lesson is about when NOT to use the definite article the.

You do not need an article when talk about thing in general.

- e.g. Azizbek likes reading books.
- e.g. Barno drinks milk every day.
- Abstract nouns:  
e.g. Music can change our life.
- Streets:  
e.g. Navoi street is one of the most beautiful streets in Tashkent.
- Languages:  
e.g. English is the one of important language in our country.

Subjects:

- e.g. Physics is my favorite subject.
- Days, Months:  
e.g. Calumbus led his three ships out of the Spanish port of Palos on August 3, 1492.
- Games and sports:  
e.g. Football is played between two teams.
- Routine places:  
e.g. I go to school every morning.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

## MY SCHOOL

1. Do you study at school?
2. Where is your school situated?
3. With whom do you usually go to school?
4. How many floors are there?
5. What does the classroom look like?
6. Do you like your school?

Write your timetable

| Monday | Tuesday | Wednesday | Thursday | Friday | Saturday |
|--------|---------|-----------|----------|--------|----------|
| 1      | 1       | 1         | 1        | 1      | 1        |
| 2      | 2       | 2         | 2        | 2      | 2        |
| 3      | 3       | 3         | 3        | 3      | 3        |
| 4      | 4       | 4         | 4        | 4      | 4        |

List of subjects

- |                  |            |             |
|------------------|------------|-------------|
| 1. History       | 5. P.I     | 9. English  |
| 2. Math          | 6. Biology | 10. Russian |
| 3. Mother tongue | 7. Physics |             |
| 4. Music         | 8. Art     |             |

Ma'mura G'ULOMOVA

## IT IS INTERESTING

We cut down around 27,000 trees every day to make paper!

97% of water on the planet is salty and not usable. 2% is frozen. That leaves us with just 1% of usable water!



The population of the world is over seven billion right now and is estimated to reach eight billion by 2025.

Octopuses have three hearts, isn't that a strange science fact!

Here's a strange animal science fact – lobsters pee from their faces and turtles can breathe through their butts!

Squirrels plant more trees than an average human in their lifetime! How? They just hide their acorns and nuts underground and forget about them!



The earth has over 80,000 species of edible plants. We only eat about 30 varieties.

The space, all of it, is completely silent, because there is no medium or mechanism to allow sound to travel.

Venus is the hottest planet in our solar system. The surface temperature is 450 degrees Celsius there!

As the moon does not have an atmosphere, there is no water or wind to erase the footprints made by the astronauts who landed on it. So the footprints are likely to stay there for a 100 million years!

## SHAHZODA

Mening ismim Shahzoda,  
Tug'ilganman bahorda.  
Onam erka qiziman,  
Dadam ko'rar ko'ziman.  
Besh baholar jonajon –  
Kundaligimga marjon.  
Mening do'stimdir kitob,  
O'rgatar ilm-u odob.  
Uyimga qaytgan chog'im,  
Yumushlardir o'rtog'im.  
Men hozirda o'quvchi,  
Bo'lmoqchiman o'qituvchi.

**Shahzoda QODIROVA,**  
Navoiy viloyati, Xatirchi  
tumanidagi 4-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

## BAXT NELIGIN O'RGATGAN

Sehri so'zlarga boy,  
Hikmat suvi oqqan soy.  
Ko'kda balqib turgan Oy,  
Shamchiroq – kitob erur,  
Dillarga bergay surur.

Ezgu yo'lni ko'rsatgan,  
Baxt neligin o'rgatgan.  
Og'ir kunda yupatgan,  
Shamchiroq – kitob erur,  
Dillarga bergay surur.

**Mohiniso BOBOQULOVA,**  
Samarqand viloyati, Past-  
darg'om tibbiyot kolleji  
o'quvchisi

## USTOZLARIM

Quyosh kabi nur taratar mehri bilan,  
Bilim berar yurakdagi sehri bilan.  
Farzandidek sevar qaynoq qalbi bilan,  
O'zbekiston faxri bo'lgan ustozlarim.

Yaxshi yo'lga yetaklaydi so'zi bilan,  
Yomonlardan asraydi u ko'zi bilan.  
Dunyoni zabt etdi bugun ilmi bilan,  
Yurtimizning faxri bo'lgan ustozlarim.

**Feruzabonu AMONOVA,**  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi  
24-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**Nabijon ERMATOV**  
(Bolalar shoiri)

## HITOB HO'NGIL OFTOBI

Kitob olgin, bolajon,  
Oftob olgan bo'lasan.  
O'qib-o'rgan hayotni,  
Aqlan kuchga to'lasan.

Kitob – ibrat, kitob yo'l,  
Maqsadingga berar tob.  
O'qib, mag'zin chaqolsang,  
Senga mayoq har kitob.

Qo'lga kitob olmagan,  
Xor bo'ladi dunyoda.  
Kim ko'p kitob o'qisa,  
Hurmat olar ziyoda.

Mir Alisher bobomlar,  
Kitobni sevgan chunon.  
Kitob – ko'ngil oftobi,  
Unga intil, bolajon!

## TONG QUYOSHIN QUCHAMAN

Tong quyoshin kutaman,  
Tong quyoshin quchaman,  
Taralganda tilla zar.

Men quyoshning bolasi,  
Men quyoshning lolasi,  
Nazokatli tong sahar.

Beqasamli tog'larga,  
Atlas kiygan bog'larga,  
Nurin etadi in'om.

Dil qo'shig'i avj urar,  
Borliq husni mavj urar,  
Ey, tabiat, assalom!

Kurramizga bir yo'la,  
Nur kosada lim to'la,  
Yog'du ziyosin sochar.

Do'st-u dushman, oq-qora,  
Insonni etmay sara,  
Kulib nur husnin ochar.

Men Quyoshning bolasi,  
Nur emib, qonib o'sdim,  
Mening onam ona Yer!

Har tong quyoshni kutib,  
Har on quyoshni quchib,  
O'tar quvnoq damlarim.

Tong quyoshin kutaman,  
Tong quyoshin quchaman,  
Toki bor ekan umrim.

Bolalik bilan bog'liq bo'lgan o'ylar  
rimning shashti baland. Nazarimda,  
butun boshli borliq menga saboq  
berishga shay turardi. Bobom ta'bi-  
ri bilan aytganda, «Echkilarni bir  
maydon alangda chiratib kelsang,  
davlatning kam bo'lmaydi». O'sha  
qo'tonda ko'zlari mo'tirab turgan  
echkilarning erkinlikka chiqqan-  
da, soqollari  
selpanglab  
yugurganini  
kuzatganim-  
da, ozodlikning  
qanchalar qadri  
ne'mat ekanligini ilk  
bora his qilganman. Tongda belimga non  
bilan adabiyot kito-  
bimni bog'lab qir-  
ga ko'tarilganimda,  
menga kitob kuch  
bag'ishlagan. Mu-  
tolaa zavqi ko'ngilni  
hech qachon tark et-  
masligi uchun tabiat  
bilan uzviy bog'lanish  
katta samara beradi. Tasavvur qilib  
ko'ring-chi, qiqirlab oqayotgan bulo-  
qning maqsadi nima ekan? Yoxud  
daraxtlar boshini silab esgan sha-  
molning qo'nmog'ini qayoqda? Nega  
bulbollar bahorning kelishiga bu  
qadar zavq-u shavq bilan peshvoz  
chiqishadi? Daryolar-chi, dod solib

qayoqqa oshiqadi? Ushbu savollar-  
ning oxiri yo'q. Ona tabiatning barcha  
sir-sinoatlari qoshida mudom tilimiz  
lol bo'lib yashaymiz.

Aziz ijodkor o'quvchi! Siz barcha  
hikmatlar javobini o'zingiz tug'ilib

yaratilmagani haqida kuyinib so'zlay-  
digan bobomning mahzun so'zlari  
menga kuch bag'ishlardi. Yo'limizga  
intiq bo'lib turgan bog'larimizning  
ham tili borligini bolalikda bobom-  
dan eshitganman. Negaki, u kishi  
bog'larini o'zining shirin so'zlari  
bilan erkalatib turardi. Uning  
evaziga bog' ham bobomning  
dasturxonini  
noz-ne'mat-  
larga to'ldirar-  
di. Bolalikning

olamidani chiqib  
ketish qiyin ekan.  
Sog'inchlar ummo-  
niga g'arq bo'lib un-  
f eslayverasan. Qani  
umr qayta berilsa-yu,  
yo'l qo'ygan xato  
va kamchiliklarni  
boshqa takrorlamay,  
hammasini boshdan  
boshlasam, deymen.

Ey, siz menga  
Vatan darsini o'rgat-  
gan benazir inson!

Bugungi darsimda sog'inchlarim bilan  
qorishiq bo'lgan o'ylarimni qog'ozga  
sochishni qaror qildim. Shoyad,  
darsga kechikib kirgan bolalar vaqt  
hech qachon ortga qaytmasligini  
ilg'ab, oldinga intilib yashash zavqini  
his etishsa...

**AXTAMQULI**

## BOLALIK – SOG'INCHIM UMMONI



o'sgan benazir tuproqdan izlashga  
intiling. Sizga rizq-u ro'z ato etgan  
muqaddas tuproqning har bir siqimida  
behob hikmat bor. Bobom bolaligimni  
cho'qqilarning mashaqqatli yo'li bilan  
bog'lagani bejiz emas edi. Biz yuqo-  
rilab borgan sari, borliqni chuqurroq  
his qilardik. Har bir tosh behikmat

## SARISHTALI HOVLI – FARISHTALI HOVLI

Nigora maktabdan kelibq buvijonisi  
bilan salomlashib, uy yumushlarini  
bajarishga kirishib ketdi. Qo'lga  
supurgi olib, hovlida to'kilgan barg-  
larni yig'ishtirdi. So'ng, oshxonadagi  
idish-tovoqlarni yuvib, tushlik uchun  
dasturxon yozdi va buvisini chaqirdi.

– Buvijon, turing, choy ichamiz.

Qushuyqu bo'lib qolgan  
buvisi nabirasining ishlarini  
derazadan kuzatib turgandi.

– Bo'yaringdan o'rgi-  
lay. Oying ishdan kel-  
guncha uyni chiroyli qilib  
qo'yding, – deb xursand  
bo'ldi.

Nigora kechki ovqatni  
tayyorlashni boshlaganda,  
oyisi ishdan kelib qoldi.

– Oyjion, nega o'zingizni urintirib  
yuribsiz, ishdan kelib o'zim qilardim,  
– deya oshxonaga yo'l oldi.

– Kelin, bu ishlarning barchasini  
jajji dastyorim Nigora ba-  
jardi. Nabiraginam ulg'ayib  
qolibdi, biz sez-



may qolibmiz. Ko'z  
tegmasin, iloyim.

Bu gaplardan  
sevingan ona  
qizining yoniga  
kelib, uni bag'riga  
bosdi. Nigoraning  
o'zi ham bun-  
dan xursand  
edi. Maktab-  
dagi «Qizlar-  
jon» klubida  
ustozlaridan olgan o'g'itlari uni  
yaxshi tomonga o'zgartira-  
yotganini dildan his qilardi.

**Sadoqat SOLIJONOVA,**  
Andijon davlat universiteti  
qoshidagi akademik lit-  
seyning 3-bosqich o'quvchisi



Diffuza SHOMALIKOVA



## kuz kemasi

(Badia)

Kuz izg'irini esdi. Shamol qishning hidini olib keldi. «Chirt-chirt» uzilgan yaproqlar zaminining ko'rasiga aylandi. Oltinrang barglarning quloqlari yerga yopishib qolganek – qishning qadam olishlari eshitiladi. Barglar qanot yozib parvozga shaylanadi, go'yo. Unga qo'shilib hamma narsa uchadi: qushlar, bulutlar. Ular qo'l ushlagan bolalarga havas qilganga o'xshaydi. Gir aylanadi. Ohista odimlayotgan tipratikan bir dumalab, barglardan soyabon yasaydi. O'zining qilmishidan quvonib bir oyog'ida aylanadi-da, atrofga qarab yo'lida davom etadi. Bog'larning isini ulashguvchi shabboda manziliga yetib, hordiqqa cho'ziladi. Yer-u ko'ni o'ziniki qilgan barg ariqning qirg'oqlariga uriladi. Suvga boshini qo'yadi, horigan yaproqlar. Ular suhbat quradi, sirlashadi. Mo'jiza ro'y beradi. Kuzning anhorlari tiniqlashib ketadi. Quyoshning aksimi, deb osmonga termulaman: yo'q! Quyonga, filga, olmaxonga – har xil gullarga o'xshagan bulutlar kezadi. Zum o'tmay «taq-tuq» ovoz eshitiladi. Yomg'ir tomchilaydi. Anhordagi baliqlar ham shoshib qolganek yuguradi. Qiziq-da, baliqchalar shamollab qolmasmikina?

Quyosh nimaga berkinib oldiyn? Termulib tursam, ipga osilib olgan yomg'ir anhor yuzida pufakchalar yasab, ovoz beradi. Quloq tutaman... buvim meni chaqirayotganek bo'ladi. Shoshib yo'lga tushaman. Yomg'ir mendan ham tezroq yugurayotganek. Ularning oyisi, buvisi o'rgatmasmikina, sekinroq yog', deb. Hamma yomg'irni yaxshi ko'radi. Men ham. Lekin soyabon tutib oladi ular, men ham. Bog' oralay uyga burilaman. Yer-u osmon o'rtasida kimdir ertak to'qiyotganek. Ostona hatlab uyga kiraman. Buvim ro'molining uchlar bilan yuzimni artadi.

– Nimaga yashil barglar sarg'ayadi? – buvimni savolga tutaman. – Kuzni sog'ingan barglar sarg'ayib ketadimi?  
– Ha, bolam. Sog'inch degani shunaqa.  
– Yomg'irning qulog'i bormi?  
– Albatta.  
– Unda qulog'iga baqirib ayting.  
– Nimaga endi baqirib?!

– U juda shoshib yog'yapti, sekin gapirsangiz eshitmaydi.  
Buvim miyig'ida kulib qo'yadi.  
– Aytingki, u yo'laklarga yog'masin-da. Tufilm ho'l bo'lsa, shamollab qolaman. Isitmalasam, oyim xafa bo'ladi.  
Oshxona tarafdin oyim kelib, meni bag'riga bosdi. Keyin oyog'imni kaftlari orasiga olib isitdi.  
– Kuz ham senga o'xshagan erkato'y-da, bolam, – dedi oyim. – Osmon-u falak kuzning kemasiga aylangan.  
Rosti, uncha tushunmadim. Oyimga savol bergim kelmadi. Endi men kattaman. O'zim bilib olishim kerak. To'g'rimi?

... Tabiat yaratgan mo'jizalardan bahra olmoq uchun inson sog'lom, zukko bo'lmog'i zarur.

## KAMALAK JILOSI

Poytaxtimizdagi Fotosuratlar uyida «Yangi avlod» fondi homiyligida o'tkazilgan Respublika «Kamalak jilosi» ko'rik-tanlovining taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



Ushbu tanlovda yurtimizda joylashgan Mehribonlik uyining 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan mingdan ortiq iqtidorli ijodkor o'quvchilari ishtirok etishdi. Tadbirida «Yangi avlod» fondi direktori Tatyana Karimova so'zga chiqib, tanlovga taqdim etilgan har bir ishni yuqori baholadi.

Quvonarlisi, g'oliblar safida Qo'qon shahridagi 12-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, 9-sinf o'quvchisi Maftunaxon Karimova ham bor. U «Xalq amaliy san'ati» yo'nalishi bo'yicha II darajali diplom bilan taqdirlandi. Yosh iqtidor egasining munchoqlardan yasagan «O'zbekiston gerbi» barchaga manzur bo'ldi.

G'oliblarga diplom va esdalik sovg'alarini O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston badiiy Akademiyasi raisi Akmal Nuriddinov topshirdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

## FUTBOLCHILARIMIZ – «DUBAI CUP» G'OLIBI

Kuni kecha Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahridan ajoyib xushxabar oldik. Quvonarlisi, futbol bo'yicha O'zbekiston olimpiya terma jamoasi «Dubai cup» xalqaro musobaqasida muvaffaqiyatli ishtirok etib, yakunda g'oliblikni qo'lga kiritdi.



Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yosh charmtop ustalarimizning turnirdagi raqiblari anoyilardan emasdi. Ularning Yaponiya, BAA va kuvaytlik tengqurlariga qarshi bahslari keskin va muvaffaqiyatli tarzda o'tib, muxlislarga bir o'lam quvonch ulashdi. Ayniqsa, o'zbek futbol ish-

qibozlari vakillarimizning har bir o'yinidan o'zgacha zavq oldi. Keling, endi bo'lib o'tgan bahslarga qisqacha to'xtalib o'tsak. Dastlab Ravshan Haydarov boshchiligidagi terma jamoamiz kunchiqar yurt vakillariga qarshi maydonda saf tortdi. Aytish kerakki, mutaxassislar ushbu o'yinni musobaqaning eng shiddatli va muvaffaqiyatli qarama-qarshiligi, deya e'tirof etdi. Bu o'yindagi hisobda ham aks etib turibdi – 2:2.

Ikkinchi uchrashuvda yoshlarimiz mezbonlarga qarshi maydonga tushib, yakunda raqiblarini 2:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. So'nggi turda esa kuvaytlik futbolchilar 1:0 hisobidagi mag'lubiyatni tan oldi. Yagona gol 27 daqiqada Mirjahon Mirahmadov tomonidan kiritildi.

Shunday qilib, O'zbekiston olimpiya terma jamoasi jami 7 ochko bilan nufuzli xalqaro musobaqa g'olibligini qo'lga kiritdi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz yoshlari o'rtasida qilichbozlik tobora ommalashib bormoqda. Anchayin murakkab hisoblangan mazkur sport turi insondan tezkor harakat va fikrlashni, tinimsiz mehnat va izlanishni talab etadi.

## QILICHBOZLARIMIZ ILK BOR SHOHSUPADA

Poytaxtimizda o'smir qizlar o'rtasida qilichbozlikning sablya yo'nalishi bo'yicha jahon kubogi bo'lib o'tganidan xabaringiz bor. Quvonarlisi, turnirning jamoaviy yo'nalishida ishtirok etgan atletlarimiz o'zbek sporti tarixida ilk bor jahon kubogida shohsupaga ko'tarildi.

Qizlarimiz bellashuvlar davomida Moldova va Germaniya terma jamoasi vakillarini mag'lubiyatga uchratdi. Final bosqichida esa anchayin kuchli hisoblangan rossiyalik raqiblariga mag'lub bo'lib, yakunda kumush medalga sazovor bo'ldi. Bahslarda yurtimiz sharafiga Zaynab Dayibekova, Sevinch Ismoilova, Shahnoza Tog'aymurodova va Aysulu Usnatdinova himoya qildi.



reytingida 12-o'ringa ko'tarildilar. Osiyo qit'asida esa kuchli uchlikka kirib oldilar.

S. TURSUNOV

# RANGLAR JILOSI



Tovus



Natyurmort


**Kamolaxon ERKINOVA,**  
Xalq ta'limi vazirligi  
tasarrufidagi  
xorijiy tillarga  
ixtisoslashtirilgan  
davlat umumta'lim  
maktabining 6-sinf  
o'quvchisi



## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

1. Napoleon ... 2. Tryuk bajaruvchi kinoaktyor.
3. Darvesh. 4. Yapon allfbosi. 5. Toq tuyuqli, shoxli hayvon.
6. Argentinalik mashhur futbolchi. 7. Uloq o'yin qatnashchisi. 8. Ufqqa qadar manzara.
9. Magistrdan oldingi ma'lumot. 10. Notiqlik san'ati. 11. Kasalxona.
12. Fikran muhokama yuritish. 13. Davlat ixtiyoriga olish.

14. Sopol, chinni. 15. ... Kastro (aktrisa). 16. Balet raqqosasi.
17. Eng yirik stadion. 18. Tez. 19. Tilshunoslik bo'limi. 20. Fizika bo'limi. 21. Tibbiyot.
22. Davlat boshqarmasi. 23. Voyaga yetmagan go'dak. 24. Qirilib ketgan jonivor turi.
25. Liq to'lgan, tirband. 26. Diktor (o'zbekcha). 27. Hazil - ..., kulgi.
28. Ko'rpacha (sheva).



Tuzuvchi:  
Fayzulla  
ABDULLAYEV

## YULDUZLAR BOSHQA NOM BILAN ATALADI

**Astronomlar**  
«Yulduz» tushunchasi-  
ga yangi ta'rif berishga  
tayyorlanmoqda.



Ikkita yirik jigarrang «Yarqiramay qolgan» noodatiy yulduzning ochilishi amerikalik astronomlarni «Yulduz» tushunchasining yangi ta'rifga muhtojligi haqida o'ylashga majbur qilgan.

Olimlarning kuzatishlariga ko'ra, «Jigarrang mitti yulduz» va «Yulduz» tushunchalarini qayta ko'rib chiqish kerak. Ma'lum bo'lishicha, eng og'ir yarqiramaydigan yulduz va eng kichik yulduzlarning og'irligi deyarli bir-biridan farq qilmaydi.

Shunga qaramasdan, ular turlicha rivojlanadi. Jigarrang mittilar tezda xiralashib qolsa, yulduzlar milliard yillar davomida yarqirab turadi.

Internet manbalari asosida  
Sherali TOSHNIYOZOV  
tayyorladi